NAMANGAN VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik

## 2022- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

# Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik

**Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi, % da**




**2020- yil**




**2021- yil**




**2022- yil**

2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining **YaHM**dagi ulushi **72,4** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **10,6** birlikni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar-sentabrida **4108** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **15,9** foizga kam demakdir.

**2022- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda **1546** ta, sanoatda **1119** ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida **542** ta, yashash va ovqatlanishda **188** ta, qurilishda **154** ta, tashish va saqlashda **130** ta tashkil etilgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

## 2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da

| | |
|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 96,9 |
| Sanoat | 44,6 |
| Qurilish | 89,7 |
| Investitsiya | 63,4 |
| Savdo | 91,5 |
| Xizmatlar | 66,1 |
| Eksport | 42,8 |
| Import | 72,3 |

| | |
|---|---|
| Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni | 31 442 |
| Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni | 4 108 |

2022- yilning yanvar-sentabrida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

## yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, % da



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

## 2022- yil yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar , % da

- Savdo — 36,1 %
- Sanoat — 24,3%
- Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi — 9,5%
- Qurilish — 7,7%
- Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar — 5,2%
- Tashish va saqlash — 3,8%
- Axborot va aloqa — 1,5%
- Sog‘likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish — 2,0%
- Boshqa faoliyat turlari — 9,9%




Yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

## Hududlar bo‘yicha yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Hudud bo'yicha yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda




## 2022- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Namangan shahri – 31,1 %, Uchqo'rg'on tumani – 8,4 %, Chust tumani – 7,7 %, Chortoq tumani – 7,5 %, Norin tumani - 6,7 %, Namangan tumani – 6,2 %, Yangiqo'ron tumani – 6,1 %, Uychi va To'raqo'rg'on tumanlari - 5,9 %, hissalariga to'g'ri keldi.



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda




## Yangi tashkil etilgan korxonalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan shahar va tumanlar, birlikda




Ma’lumot uchun: 2022– yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘p salmog‘i, birlikda:

Savdoda
1546 ta

Sanoatda
1119 ta

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida
542 ta

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar
188ta

# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

2022- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 10,6 birlikni tashkil etdi.

**Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 1-oktabr holatiga ko‘ra***




**2022- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)***

2022- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Namangan shahrida 15,4 birlik, Namangan tumanida 11,3 birlik, Uchqo‘rg‘on tumanida 11,0 birlik, Mingbulloq tumanida 10,3 birlik, Norin va Chust tumanlarida 9,3 birlikni tashkil etgan.




** Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)*

# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga shahar va tumanlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Namangan shahrida 15,4 birlik, Namangan tumanida 11,3 birlik, Uchqo'rg'on tumanida 11,0 birlik, Mingbulloq tumanida 10,3 birlik, Norin va Chust tumanlarida 9,3 birlikni tashkil etdi.

**Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra***

**Eng yuqori ko'rsatkich**
**Namangan shahri - 15,4 birlik.**

**O'rtacha ko'rsatkich**
**Norin va Chust tumanlari - 9,3 birlik.**

**Past ko'rsatkich**
**Yangiqo'rg'on tumani - 6,5 birlik.**

**2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda ***




** Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)*

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 186,7 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 42,5 % ini tashkil etdi.



**Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi**




**2022- yilnig yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da**




2022- yil yanvar – sentabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Chortoq va Yangiqo‘rg‘on tumanlarida – 100,0 %, Norin tumanida – 91,8 %ni, Pop tumanida – 64,8 %, Namangan shahriida – 60,2 %, Uychi tumanida – 47,9 %ni, eng past ko‘rsatkich Uchqo‘rg‘on tumanida – 11,1 %ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **363,8** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **72,0** % ini tashkil etdi.




**Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi**



2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Yangiqo‘rg‘on va Chortoq tumanlarida – 100,0 %, Norin shahrida – 99,9 %, Pop tumanida – 95,4 %, Uychi tumanida – 90,8 %, Kosonsoy tumanida – 90,6 %. Eng past ko‘rsatkich Mingbuloq tumanida - 21,4 %ni tashkil etdi.

**2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati

**2022- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi**




2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **5675,8** milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Namangan shahri (2528,1 mlrd. so‘m), Uychi (537,2 mlrd. so‘m), Namangan (496,1 mlrd. so‘m), Chust (437,1 mlrd. so‘m) va Mingbuloq(283,1 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Norin tumanida (84,0 mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati






Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi

2022- yil yanvar-sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **44,6** % ni tashkil etdi.

## 2022- yil yanvar-sentabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Chortoq va Yangiqo‘rg‘on tumanlari (100,0%), Uychi tumani (73,4%), Namangan tumani (64,6%), Pop tumani (59,9%), Namangan shahri (53,6%) tashkil etdi. To‘raqo‘rg‘on tumanida esa, (10,2%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo‘lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




**Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi**

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **11948,2** mlrd. so‘mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **91,5** % ini tashkil etib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **11,7** % ga o‘sishi kuzatildi.

**2022- yilning yanvar- sentabrda hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o‘sish sur’ati**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Namangan shahri (4836,7 mlrd. so‘m), Pop (914,0 mlrd. so‘m), Chust (889,5 mlrd. so‘m), To‘raqo‘rg‘on (768,5 mlrd. so‘m), Uychi (716,6 mlrd. so‘m), Norin (655,2 mlrd. so‘m) hamda Yangiqo‘rg‘on(644,5 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati

**Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi**




2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **4242,8** milliard so‘mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **89,7** % ini tashkil etdi. o‘sish sur‘ati 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **102,7** %ni tashkil qildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Namangan shahri (1053,9 mlrd. so‘m), Uychi (514,7 mlrd. so‘m), Kosonsoy (372,7 mlrd. so‘m), Chortoq (362,3 mlrd. so‘m), Namangan (340,4 mlrd. so‘m), Chust (264,8 mlrd. so‘m), Yangiqo‘rg‘on (255,5 mlrd. so‘m) hamda To‘raqo‘rg‘on (255,4 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

**2022- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o‘sish sur’ati**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi




2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **7073,1** mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **66,1** % ini tashkil qildi va o‘sish sur’ati 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **113,9** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Namangan shahri (2046,3 mlrd. so‘m), Chust (532,2 mlrd. so‘m), Uychi (531,7 mlrd. so‘m), To‘raqo‘rg‘on (523,6 mlrd. so‘m), Pop (494,2 mlrd. so‘m), Namangan (460,5 mlrd. so‘m) va Chortoq (460,1 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

2022- yilning yanvar- sentabrda hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o‘sish sur’ati



# 2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarininig xizmatlar sohasidagi ko‘rsatkichlari

**2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:**




Yuk tashishda




Yuk aylanmasida




Yo‘lovchi tashishda




Yo‘lovchi aylanmasida

2022- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 91,6 % ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 101,7 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 88,8 % ni tashkil etgan bo‘lib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 103,5 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 97,4 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 102,7 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 93,3 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 103,5 % ni tashkil qildi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil III-chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnomada 1091 ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 419(38,4%) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 579(53,1%) tasi subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 93(8,5%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 5,7 % (62 ta), sanoatda – 21,0 % (229 ta), qurilishda – 6,9 % (75 ta), savdoda – 39,2 % (428 ta), xizmatlar sohasida – 27,2 % (297 ta) ni tashkil etdi.

**2022- yil III chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da**





# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2022- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Namangan shahri (387 ta), Pop tumani (89 ta), Chust tumani (75 ta), To'raqo'rg'on tumani (74 ta) hamda Namangan tumani (70 ta) hissasiga to'g'ri keldi.

**2022- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da**



# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2022- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2022- yilning III choragida, o‘tkazilgan kuzatuv natijalariga ko‘ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi savdoda 40,7 %ni, sanoatda 38,4 %ni, xizmatlar sohasida 38,0 %ni tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 69,4 %ni, xizmatlar sohasida 55,6 %ni, savdoda 50,9 %ni tashkil etdi.

**2022- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarninig yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**




2022- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarninig **yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli** bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi sanoatda 46,7 %ni, xizmatlar sohasida 45,5 %ni, qurilish sohasida 45,3 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli** bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 61,3 %ni, xizmatlar sohasida 49,5 %ni, savdoda 48,4 %ni tashkil etdi.

## 2022- yilning III- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da

| | O‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar | | |
|---|---|---|---|
| | Ko‘payish (yaxshilanish*) | o‘zgarishsiz | Kamayish (yomonlashish*) |
| Korxonaning umumiy aylanmasi | 45,1 | 44,7 | 10,2 |
| Band bo‘lganlar soni | 18,2 | 75,9 | 5,9 |
| Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx | 40,4 | 54,1 | 5,5 |
| Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari | 33,1 | 57,8 | 9,1 |
| Raqobat muhiti* | 42,4 | 54,2 | 3,4 |

| | Yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli | | |
|---|---|---|---|
| | Ko‘payish (yaxshilanish*) | o‘zgarishsiz | kamayish (yomonlashish*) |
| Korxonaning umumiy aylanmasi | 49,2 | 45,7 | 5,1 |
| Band bo‘lganlar soni | 23,4 | 73,2 | 3,4 |
| Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx | 41,2 | 55,1 | 3,7 |
| Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari | 36,7 | 56,4 | 6,9 |
| Raqobat muhiti* | 44,5 | 52,7 | 2,8 |

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

## 2022- yilning III- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar, % da




## 2022- yilning III- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli, % da

